



“OILA VA GENDER” ILMIIY-TADQIQOT INSTITUTI

OILA, XOTIN-QIZLAR VA IJTIMOIY HAYOT

elektron ilmiy jurnal

1/2025

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.
“Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv” jurnalining vorisidir.

Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.

ISSN 9874-4126

TOSHKENT

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (Bosh muharrir) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*
MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna (Bosh muharrir o'rinbosari) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*
ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
BEGIMQULOV Uzoqboy Shoimqulovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*
FARFIYEV Bahromjon Atxamdjanovich – *sotsiologiya fanlari doktori, dotsent.*
ISHQUVATOV Valiql Turdiyevich – *tarix fanlari doktori, professor.*
KARAMYAN Marietta Xachaturovna – *psixologiya fanlari doktori, professor.*
MUSLIMOV Narzulla Alixanovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*
NURMATOVA Mukarram Axmedovna – *falsafa fanlari doktori, professor.*
NARMATOV Nuriddin Soatmuradovich – *yuridik fanlari doktori, professor.*
RAHMANQULOVA Nilufar Xodji-Akbarovna – *yuridik fanlari doktori, dotsent.*
SAYDIVALIYEVA Xurshida Xodjiakbarovna – *yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*
ATAMURATOV Rasuljon Kadirjonovich – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*
SODIQOVA Shohida Marhobayevna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*
UMIRZAKOV Baxodir Xamidovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*
IBRAGIMOV Lutfullo Ziyodullayevich – *geografiya fanlari doktori, dotsent.*
JABBAROV Ulug'bek Abduraxmanovich – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*
HOJIYEV Rasulbek Boynazar o'g'li – *falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (Главный редактор) – *доктор педагогических наук, профессор.*

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – *доктор социологических наук, профессор.*
Мусурманова Айниса Мусурмановна (Заместитель главного редактора) – *доктор педагогических наук, профессор.*
Абдураманов Хамид Худайбергенович – *доктор экономических наук, профессор.*
Бегимкулов Узокбой Шоимкулович – *доктор педагогических наук, профессор.*
Фарфиев Бахромжон Аткамджанович – *доктор социологических наук, доцент.*
Ишкuvatov Валикул Турдиевич – *доктор исторических наук, профессор.*
Карамян Мариэтта Хачатуровна – *доктор психологических наук, профессор.*
Муслимов Нарзулла Алиханович – *доктор педагогических наук, профессор.*
Нурматова Мукаррам Ахмедовна – *доктор философских наук, профессор.*
Нарматов Нуриддин Соатмурадович – *доктор юридических наук, профессор.*
Рахманкулова Нилуфар Ходжи-Акбаровна – *доктор юридических наук, доцент.*
Сайдивалиева Хуршида Ходжаакбаровна – *доктор философии юридических наук (PhD).*
Атамуратов Расулжон Кадирджонович – *доктор философии педагогических наук (PhD).*
Содикова Шохид Мархобаевна – *доктор социологических наук, профессор.*
Умирзаков Баходир Хамидович – *доктор экономических наук, профессор.*
Ибрагимов Лутфулло Зиёдуллаевич – *доктор географических наук, доцент.*
Жаббаров Улughбек Абдурахманович – *доктор философии педагогических наук (PhD).*
Ходжиев Расулбек Бойназар оглы – *доктор философии (PhD) по философским наукам.*

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna (Editor-in-Chief) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*
Musurmanova Aynisa Musurmanovna (Deputy Editor-in-Chief) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*
Abduramanov Khamid Khudaybergenovich – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*
Begimkulov Uzokhboy Shoimkhulovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*
Farfiyev Bakhromjon Atkhamdjanovich – *Doctor of Sociological Sciences, Associate Professor.*
Ishkuvatov Valikhul Turdiyevich – *Doctor of Historical Sciences, Professor.*
Karamyan Marietta Khachaturovna – *Doctor of Psychological Sciences, Professor.*
Muslimov Narzulla Alikhanovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*
Nurmatova Mukharram Akhmedovna – *Doctor of Philosophical Sciences, Professor.*
Narmatov Nuriddin Soatmuradovich – *Doctor of Law Sciences, Professor.*
Rakhmankulova Nilufar Khodji-Akbarovna – *Doctor of Law Sciences, Assistant Professor.*
Saydivaliyeva Xurshida Khodjiakbarovna – *Doctor of Philosophy in Law (PhD).*
Atamuratov Rasuldjon Kadirdjonovich – *Doctor of Philosophy in Pedagogy (PhD).*
Sodikova Shokhida Markhobayevna – *Doctor of Sociological Sciences, Professor.*
Umirzakov Bakhodir Khamidovich – *Doctor of Economic sciences, Professor.*
Ibragimov Lutfullo Ziyodullayevich – *Doctor of Geographical Sciences, Assistant Professor.*
Djabbarov Ulughbek Abdurakhmanovich – *Doctor of Philosophy in Pedagogy (PhD).*
Khodjiev Rasulbek Boynazar ogly – *Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences.*

SOTSILOGIYA

Usmonova R.M. O‘zbekistonda xotin-qizlar norasmiy bandligini kamaytirishning iqtisodiy va huquqiy jihatlarining sotsiologik tahlili	4
--	---

JAMIYAT VA OILA

Axunov M.M. Aholi migratsiyasi genezisi va uning nazariy-metodologik asoslari.....	17
Yulchiyeva D. Oila a‘zolari o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik faoliyat mohiyati	26
Davlatova H.U. Yoshlar orasida intellektual migratsiya ko‘lamini qisqartirish va tartiblash mexanizmlarini takomillashtirish.....	36

IJTIMOIIY PEDAGOGIKA

Matkarimov A.M. Oilada ta‘lim muhitini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik jihatlari	46
Ummatkulova N. Oila va maktab hamkorligida o‘smirlarning aqliy rivojlanishini takomillashtirish.....	53
Qahhorova F.Y. Ijtimoiy pedagogikada ishontirish metodlari	60
Rustamova N.Y. Oilada kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqot ishlari metodikasi mazmunini tahlil qilish.....	67
Egamberdiyeva G.B. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari direktorlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni.....	79

IJTIMOIIY PSIXOLOGIYA

Arzikulov D.N. Mutaxassislar shaxsiy-kasbiy sifatlarini shakllantirishning axloqiy-psixologik omillari.....	89
Shamsiyev O‘.B. Bolalar chapaqayligi xususida	94
Абдуганиева Д.А. Влияние семейного воспитания на формирование эмоционального состояния личности	100
Xudoyorova M.X. Ta‘lim psixologiyasining talabalar o‘zlashtirishidagi ahamiyati	109
Ashurova A.N. O‘smirlik davrida o‘z-o‘zini anglashni rivojlantirishning psixologik omillari	119
Nazarova M.Y. Xotin-qizlarga nisbatan kiberzo‘ravonlik: sabab, oqibat va himoya mexanizmlari.....	127



Davlatova Hulkaroy Uktamovna,
Andijon davlat chet tillari instituti
“Ingliz tili nazariy aspektlari” kafedrasida dotsenti

YOSHLAR ORASIDA INTELLEKTUAL MIGRATSIYA KO‘LAMINI QISQARTIRISH VA TARTIBLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlar orasida intellektual migratsiya ko‘lamini qisqartirish va tartiblash mexanizmlarini takomillashtirish borasida fikr yuritilgan. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining xorijda ishlash, muayyan kasb va ixtisoslik bo‘yicha chet el tajribalarini o‘rganish huquqi kafolatlangani, biroq mo‘may maosh olish ilinjida o‘zga yurtlarga noqonuniy yo‘l bilan ketgan hamda odam savdosi qurboniga aylanayotganlar ham uchrayotgani kabi og‘riqli muammolarimiz haqida ham mulohazalar keltirilgan.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы сокращения масштабов интеллектуальной миграции среди молодежи и совершенствования механизмов регулирования. При этом констатируется, несмотря на то, что права граждан Республики Узбекистан на работу за рубежом, изучение зарубежного опыта по отдельным профессиям и специальностям гарантированы законодательством страны, встречаются и те, кто выезжает в другие страны нелегально и становится жертвой торговли людьми.

Annotation. This article examines the issues of reducing the scale of intellectual migration among young people and improving regulatory mechanisms. At the same time, it is stated that despite the fact that the rights of citizens of the Republic of Uzbekistan to work abroad and study foreign experience in certain professions and specialties are guaranteed by the legislation of the country, there are also those who travel to other countries illegally and become victims of human trafficking.

Tayanch so‘zlar: yoshlar, migratsiya, ish, horij, daromad, oila, ota-ona, farzandlar, qonunchilik, kasb-kor.

Ключевые слова: молодежь, миграция, работа, за рубежом, доходы, семья, родители, дети, законодательство, профессия.

Keywords: youth, migration, work, abroad, income, family, parents, children, legislation, profession.

Kirish. Iqtisodiy globallashtiruv kuchayib borayotgan bugungi kunda inson resurslari harakatining shakli va yoʻnalishlari, boshqacha aytganda, migratsiya oqimi tobora jadal tus olmoqda. Albatta, kimdir zamonaviy bilim egallash yoki davolanish uchun xorijga yoʻl oladi, boshqa birov esa turmush sharoitini yaxshilash maqsadida musofirchilikda yurib boʻlsa-da, serdaromad ishning boshini tutishga harakat qiladi. 2020-yilning birgina oktabr oyida pul oʻtkazmalari oladigan uy xoʻjaliklarining ulushi oʻtgan oyga nisbatan deyarli oʻzgarmadi, ammo 2019-yil koʻrsatkichidan past boʻlib qolmoqda. Aprel oyida har qanday pul oʻtkazmalarini olgan oilalar ulushi oʻtgan yilning shu davriga nisbatan ikki baravar kamayib, may va avgust oylarida biroz tiklandi. Pul oʻtkazmalari olganlar orasida aprel oyida 2019-yilning shu davriga nisbatan jami pul oʻtkazmalari qiymati 67 foizga pasaygan. Ushbu koʻrsatkichning pasayishi oʻtgan yilning joriy davriga nisbatan 16 foizni tashkil etdi. Shu bilan birga, Oʻzbekiston Markaziy banki maʼlumotlariga koʻra, karantin cheklolari tufayli aviaparvozlarning qisqarishi natijasida rasmiy pul oʻtkazmalari oʻzgarishi bilan bogʻliq pul oʻtkazmalari hajmi 3 foizga pasayganini koʻrsatdi. Xususan, xorijda ishlovchi oila aʼzolari bor uy xoʻjaliklari soni kamaydi. Aprel va oktabr oylarida chet elda istiqomat qiluvchi oilalarning ulushi 2019-yilning shu davrlariga nisbatan 3 foiz darajaga past boʻldi. Joriy yilning oktabr oyida hali ham chet elda boʻlganlar orasida faol bandlik 90 foizdan 85 foizgacha kamaydi. Apreldan oktabrgacha chet elga koʻchib oʻtishni rejalashtirgan oilalarning ulushi deyarli nolga tushdi.

Maqsad va uni asoslash. Oʻzbekiston xalqaro mehnat bozorining toʻlaqonli aʼzosi sifatida migratsiya jarayonidan chetda qolgani yoʻq. Fuqarolarimizning xorijda ishlash, muayyan kasb va ixtisoslik boʻyicha chet el tajribalarini oʻrganish huquqi kafolatlangan. Biroq moʻmay maosh ilinjida oʻzga yurtlarga noqonuniy yoʻl bilan ketib, odam savdosi qurboniga aylanayotganlar ham uchrayotgani ogʻriqli muammolarimizdan biridir. Oʻzbekistondagi migratsiya jarayonlarining oʻziga xos jihatlari va sabablarini aniqlash, fuqarolarning migratsiyaga oid, jumladan, mehnat va taʼlim migratsiyasi bilan bogʻliq kayfiyatini oʻrganish, mehnat migrantlarining ijtimoiy va huquqiy himoyasizlik darajasini aniqlash kabi jihatlari “Ijtimoiy fikr” Respublika jamoatchilik fikrini oʻrganish markazi mutaxassislar tomonidan oʻtkazilgan ijtimoiy soʻrovning eʼtibor markazida boʻldi.

“Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini oʻrganish markazi tomonidan oʻtkazilgan navbatdagi soʻrov shu nuqtayi nazardan oʻta dolzarb ahamiyatga ega. “Migratsiya jarayonlari – jamoatchilik fikri koʻzgasida” mavzuida fuqarolarimizning kayfiyatini, mehnat migratsiyasiga munosabatini oʻrganish, ijtimoiy holati va huquqiy savodxonlik darajasini

Oʻzbekiston Markaziy banki maʼlumotlariga koʻra, karantin cheklolari tufayli aviaparvozlarning qisqarishi natijasida rasmiy pul oʻtkazmalari oʻzgarishi bilan bogʻliq pul oʻtkazmalari hajmi 3 foizga pasayganini koʻrsatdi. Xususan, xorijda ishlovchi oila aʼzolari bor uy xoʻjaliklari soni kamaydi.

So‘rov natijalari ehtimoliy migrantlar uchun qaysi mamlakatlar eng jozibador ekanini aniqlash imkonini berdi. Avvalgi yillarda bo‘lgani kabi hozir ham o‘zbekistonliklar uchun Rossiya Federatsiyasi eng maqbul mamlakat bo‘lib qolmoqda. Bu til bilishda muammoning yo‘qligi, oilaviy va madaniy aloqalar, ta‘lim tizimlarining o‘xshashligi, vizasiz borib-kelish tartibi mavjudligi kabi omillar bilan izohlanadi.

aniqlash maqsadlari ko‘zda tutilgan so‘rovda yurtimizning barcha hududidan turli millatga mansub 1 ming 100 nafar kishi ishtirok etdi. Aytish kerakki, respondentlar orasida davlat korxonasi va muassasalarida ishlayotganlar ham, fermer va tadbirkorlar ham, talabalar, o‘quvchilar, pensioner va ishsizlar ham bor. “Sizda O‘zbekiston Respublikasini tark etib, doimiy yashash uchun boshqa mamlakatga ketish istagi bormi?”. Ushbu savol bilan boshlangan so‘rovda respondentlarning mutlaq katta qismi 97,1 foizi O‘zbekistonni tark etishni aslo istamasligini, o‘z kelajagini shu yurt bilan bog‘liq holda ko‘rishini bildirgan. Faqat 1,5 foiz ishtirokchi boshqa mamlakatga ketish niyatida ekanini ma‘lum qilgan. Yosh kesimida esa 18–19 yoshlilar va 20–29 yoshlilar guruhidagi respondentlar migratsion kayfiyatga ko‘proq moyil.

Tadqiqotga ko‘ra, 62,5 foiz ehtimoliy migrantlarning mamlakatdan ketish haqidagi qarori uzil-kesil emas. Ular agar doimiy va daromadli ish topishsa, o‘z kasbiy va intellektual salohiyatini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lishsa, chet elga jo‘nash fikridan voz kechishga tayyorlar.

So‘rov natijalari ehtimoliy migrantlar uchun qaysi mamlakatlar eng jozibador ekanini aniqlash imkonini berdi. Avvalgi yillarda bo‘lgani kabi hozir ham o‘zbekistonliklar uchun Rossiya Federatsiyasi eng maqbul mamlakat bo‘lib qolmoqda. Bu til bilishda muammoning yo‘qligi, oilaviy va madaniy aloqalar, ta‘lim tizimlarining o‘xshashligi, vizasiz borib-kelish tartibi mavjudligi kabi omillar bilan izohlanadi. Shuningdek, 2017-yilda AQShga ko‘chib borish istagidagilar soni ortdi. Bu yo‘nalish, asosan, Andijon, Samarqand, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahri aholisi o‘rtasida ommalashgani qayd qilindi. Ayni damda G‘arbiy Yevropaga intilayotgan respondentlar soni qisqardi va hech bir respondent Yaqin Sharqdagi biron-bir mamlakatga borib yashash niyatini bildirmadi.

O‘zbekiston fuqarolarining xorijga yo‘l olishiga asosiy sabablardan biri – ta‘lim olish bilan bog‘liq. Masalaning ushbu jihati alohida e‘tiborga olingan tadqiqotda “Keyingi besh yilda sizning oilangizdan kimdir ta‘lim olish yoki ta‘lim darajasini oshirish maqsadida chet elga borganmi?” savoliga ishtirokchilarning salkam ikki foizi “ha” deb javob berdi. Oila a‘zolari chet elda ta‘lim olgan yoki hozirgi vaqtda ta‘lim olayotgan respondentlarning ko‘pchiligi poytaxt aholisi hissasiga to‘g‘ri keladi. Bundan ayon bo‘ladiki, Rossiya Federatsiyasi, AQSh, Janubiy Koreya, Yevropa mamlakatlari va Xitoy eng ommabop yo‘nalishlardan biridir.

Farzandlari chet davlatda tahsil olgan 42,1 foiz respondentning bildirishicha, ularning oila a‘zosi o‘qishdan so‘ng, o‘z yurtiga qaytgan. 9,5 foiz ishtirokchining javobiga ko‘ra, ularning yaqin kishisi o‘qishni tamomlagan, biroq uyga qaytib kelmagan. Xorijda qolgan bu yosh

mutaxassislarning ayrimlari o'sha joyda oila qurishi ham ularning O'zbekistonga qaytmasligiga sabab bo'lmoqda. So'rov natijalari xorijda ilm olgan yoshlarning Vatanga qaytishi uchun ishga joylashish va kasbiy moslashuvning qulay sharoitlarini yaratishning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish, biznes-inkubatorlar va texnoparklar barpo etishni kengaytirish zarurligini ko'rsatdi. Zero, bilimli, salohiyatli yoshlar o'zimizga ham kerak!

So'rovlar natijalariga ko'ra, mehnat migratsiyasiga ketish istagini bildirganlarning katta qismini erkaklar tashkil qiladi. Pul topish uchun fuqarolar boshqa mamlakatga ko'pincha bir yil muddatga (26,7 foizi), kamroq holatda ikki yil muddatga borishni afzal ko'rishadi (15,8 foizi). Ishlash uchun uzoq muddatga ketmoqchi bo'lganlar foizi u qadar yuqori emas. Qizig'i shuki, boshqa mamlakatga ishlash uchun ketish istagidagi respondentlar ulushi shaharda ham, qishloq joylarda ham bir xil. Xorijda ishlash uchun sabablar turlicha. So'rov fuqarolarning qaysi maqsadda mehnat migratsiyasiga intilishlarini aniqlashga imkon berdi. So'ralgan har ikkinchi fuqaro ishlab topgan puliga uy-joy, yer uchastkasi yoki avtomobil sotib olish niyatida ekanini bildirgan. Har to'rtinchi respondent to'y marosimlarini o'tkazish, bolalarining o'qishi uchun to'lovni amalga oshirish va boshqa o'tkir ijtimoiy-maishiy muammolarini hal qilish maqsadida mehnat migratsiyasiga qo'shiladi. Har o'ninchi respondent o'z biznesini ochish uchun boshlang'ich kapitalga muhtoj. So'ralganlarning sakkiz foizi o'z ijtimoiy maqomini oshirishga umid qiladi.

Yana bir muhim jihat – Rossiya Federatsiyasi O'zbekiston fuqarolari uchun mehnat migratsiyasining asosiy yo'nalishligicha qolmoqda. Respondentlar (18 foizi) ishlash uchun ma'qul sanagan navbatdagi davlat Janubiy Koreyadir. Binobarin, Janubiy Koreya mehnat migratsiyasi bo'yicha O'zbekistonning yaqin sheriklaridan biri hisoblanadi. Ushbu uchlik so'ngida esa AQSh turibdi. Tadqiqotda mehnat migratsiyasi mamlakatini tanlashda yuqori ish haqi omilini shaharliklar qishloq aholisiga nisbatan, ayollar esa erkaklarga nisbatan ko'proq e'tirof etdilar. Ularning aksariyati tez va salmoqli daromad keltiradigan, qo'shimcha tahsilni talab qilmaydigan sohalarga ishga joylashishni xohlashadi. Shu ma'noda, qurilish sohasida ishlash mehnat migrantlari uchun ayni muddaodir. Qolaversa, bu yil savdo sohasida ishlashni istaydiganlar soni kamaydi, xizmat ko'rsatish va transport sohaslarida ishlashni mo'ljallayotgan respondentlar soni ortdi.

So'rovda erkaklarning har ikkinchisi ishlash uchun qurilish, 15,4 foizi yo'lovchi va yuk tashish, 10,8 foizi xizmat ko'rsatish sohaslarini tanlagan. Ayollar esa bolalarni, keksa yoki bemor kishilarni parvarishlash (40,6 foiz), savdo (12,5 foiz), xizmat ko'rsatish tarmoqlarida ishga joylashishni

So'rovlar natijalariga ko'ra, mehnat migratsiyasiga ketish istagini bildirganlarning katta qismini erkaklar tashkil qiladi. Pul topish uchun fuqarolar boshqa mamlakatga ko'pincha bir yil muddatga (26,7 foizi), kamroq holatda ikki yil muddatga borishni afzal ko'rishadi (15,8 foizi). Ishlash uchun uzoq muddatga ketmoqchi bo'lganlar foizi u qadar yuqori emas.

***Mazkur maqola
yana bir diqqatga
molik ma'lumotni
taqdim etdi.
Tashqi mehnat
migratsiyasi
masalalari
agentligi
yordamida boshqa
mamlakatga
ketish istagidagi
fuqarolar soni
o'tgan yildagiga
nisbatan o'sdi.
Xorijda ishga
joylashtirishni
va'da qilgan
shaxslar
orqali mehnat
migratsiyasiga
ketish niyatidagi
fuqarolar
soni pasayish
tendensiyasi
kuzatildi.***

istaydilar. Darvoqe, mehnat bozorida shaharliklarning o'ziga ishonchi qishloq aholisiga nisbatan kuchliroq ekan. Tahlillardan ko'rinadiki, chet davlatda muayyan muddat ishlab, keyin ona-yurtga qaytish istagidagi respondentlar soni o'tgan yillar natijalari bilan qiyoslaganda, biroz kamaydi va so'rov o'tkazish paytida 9,2 foizni tashkil qildi. Hududlar kesimida ko'rganda esa ko'proq Samarqand, Jizzax, Surxondaryo va Farg'ona viloyatlari aholisi chetga ketish istagida bo'lib, Navoiy, Buxoro va Sirdaryo viloyatlarida pul topish uchun mamlakatni tark etishga intiluvchi fuqarolar soni kamaygan. So'rov natijalariga asoslanib, mehnat migrantining ijtimoiy qiyofasini shunday ta'riflash mumkin: u 20–49 yoshlar o'rtasida, o'rta maxsus yoki o'rta texnik ma'lumotga ega, moddiy jihatdan o'zini ijtimoiy quyi sinfga mansub, deb hisoblaydi va qisqa fursatda boyib ketishni istaydi.

Mazkur maqola yana bir diqqatga molik ma'lumotni taqdim etdi. Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligi yordamida boshqa mamlakatga ketish istagidagi fuqarolar soni o'tgan yildagiga nisbatan o'sdi. Xorijda ishga joylashtirishni va'da qilgan shaxslar orqali mehnat migratsiyasiga ketish niyatidagi fuqarolar soni pasayish tendensiyasi kuzatildi. Bu shundan dalolat beradiki, migrantlar xorijga qonuniy tartibda ketishning afzalligini yanada teran anglamoqda va chet elda rasman ishga joylashish imkoniyatidan foydalanishni ko'proq xohlamoqda. Respondentlar fikricha, noqonuniy migratsiya va migrantlarning odamfurushlar to'riga tushib qolishi bilan bog'liq xavf-xatarlarni kamaytirish kerak. Buning uchun yoshlar, ayniqsa, uyushmagan yigit-qizlar bilan ishlash tizimini yanada yaxshilash, noqonuniy migratsiya ustidan nazoratni kuchaytirish, aholining tashqi migratsiya bo'yicha xabardorlik darajasini oshirish va mahallaning salohiyatidan yanada samarali foydalanish, mehnat migrantlari, shuningdek, odam savdosi jabrdiydalari bo'lgan kishilarga ko'maklashuvchi muassasalar ishini jonlantirish hayotiy zaruratga aylandi.

UNICEF, Yoshlar ittifoqi va "Yuksalish" umumilliy harakati hamkorlikda "O'zbekiston yoshlari: muammo va istiqbollari" ("Молодежь Узбекистана: вызовы и перспективы") deb nomlangan yirik tadqiqot natijalarini e'lon qildi. Unda respublikaning barcha hududlarida istiqomat qiluvchi 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan 4 ming 500 nafarga yaqin respondent ishtirok etdi. Qolaversa, bevosita muloqot qilish uchun 24 ta fokus-guruhi shakllantirilgan. Tadqiqot uch yil mobaynida zamonaviy metodologiyalar asosida olib borildi. Loyihaga yetakchi mahalliy va xorijiy ekspertlarning jalb etilgani ham alohida e'tiborga molikdir.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Sotsiologik so'rov natijalari asosida tayyorlangan hisobotda aytilishicha, 15–20 yildan so'ng,

O‘zbekiston noyob demografik dividendni qo‘lga kiritadi. 2048-yilga borib mamlakatda mehnatga layoqatli aholi soni tarixiy pik darajasiga yetishi kutilmoqda. Tabiiyki, ularning salmoqli qismini yoshlar tashkil qiladi. Hozir davlat oldidagi asosiy vazifa demografik dividendni qo‘ldan boy bermaslik hamda undan maksimal ravishda foydalanishdan iborat. Boshqacha aytganda, hukumat inson kapitaliga, ya’ni yoshlarning sifatli ta’lim olishi-yu intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishiga katta hajmda investitsiya kiritishi zarur. Bu kelajakda nafaqat iqtisodiyotni yuksaltirish, balki ijtimoiy vaziyatni barqarorlashtirish, kambag‘allik va salohiyatli kadrlar migratsiyasini qisqartirish, ishsizlikni bartaraf etish, xalqning turmush darajasini oshirish imkonini beradi.

Aksariyat yoshlar mavjud infratuzilma (ta’limdagi muhit, moddiy-texnik ta’minot, darslik va boshqalar)ni ijobiy baholagan. Ularning **94,7 foizi** pedagoglar faoliyati, **91,1 foizi** o‘quv muassasalarining holatini qoniqarli, deb hisoblaydi. Ammo raqamli texnologiyalardan foydalanish masalasida vaziyat ko‘ngildagidek emas. Jumladan, qishloq yoshlarining **30,4 foizi** maktabida internet yo‘qligini aytgan. Shaharda bu ko‘rsatkich **22 foiz** atrofida.

Respondentlarda ta’limdan umumiy qoniqish hissi mavjudligiga qaramay, ular ta’lim sifatini oshirish kerak, deb hisoblaydi. O‘quvchi va talabalar ko‘proq xorijiy tillarni o‘rganish, kasbiy faoliyatda asqotadigan ishbilarmonlik, yetakchilik, kirishimlilik, ishga ijodiy yondashish, stressga chidamlilik, vaqtni to‘g‘ri taqsimlay olish kabi yumshoq ko‘nikmalarni egallashni xohlaydi. So‘rovnoma davomida yoshlar maktabdan ikkita muhim narsa – liderlik (**16,9 %**) va turli vaziyatlarga moslashuvchanlik (**10,9 %**) xususiyatlarini ololmayotganini ta’kidledi.

Yoshlarni qiynayotgan yana bir muammo ta’limning chiqimdorligi bilan bog‘liq. So‘rovnomada ishtirok etganlarning aksariyati o‘qish xarajatlari (repetitor xizmati, sessiyani pora bilan yopish, kontrakt to‘lovi) ularni stress va ilojsizlik holatiga solib qo‘yayotganini aytgan. Bir oilaning repetitor uchun oylik xarajati ba’zan 30 dollardan oshadi. Shu nuqtayi nazardan, respondentlar maktabdan tashqari fan to‘garaklarini ko‘paytirish istagini bildirgan. Qolaversa, yoshlar o‘qishga kirish hamda ishga joylashishda pul va tanish-bilishchilik muhim rol o‘ynashini inkor etmadi. Demak, bugungi kunda ularning oliy o‘quv yurtiga qabul hamda ta’lim jarayonlari adolatli o‘tishiga ehtiyoji nihoyatda band.

Ayrim respondentlar ta’limdagi muvaffaqiyat insonning o‘ziga bog‘liq ekanini aytsa, qolgan salmoqli qismi o‘qituvchini asosiy motivator, deb hisoblaydi. Afsuski, bolada oliy ma’lumotli mutaxassis bo‘lish ishtiyoqini so‘ndirayotgan malakasiz pedagoglar ham uchrab turibdi.

Yoshlarni qiynayotgan yana bir muammo ta’limning chiqimdorligi bilan bog‘liq. So‘rovnomada ishtirok etganlarning aksariyati o‘qish xarajatlari (repetitor xizmati, sessiyani pora bilan yopish, kontrakt to‘lovi) ularni stress va ilojsizlik holatiga solib qo‘yayotganini aytgan. Bir oilaning repetitor uchun oylik xarajati ba’zan 30 dollardan oshadi.

2016-yilda O'zbekistonda rahbariyat almashishi bilan iqtisodiyot vektori ham o'zgardi. Ya'ni uzoq muddat amal qilib kelgan bitta iqtisodiy model ikkinchisi bilan almashdi. Bunday holat Koreya Respublikasi, Yaponiya, Xitoy davlatlarida o'tgan asrning 70-80-yillarida kuzatilgan.

O'qishni bitirgach uyda o'tirib qolayotgan yoshlar orasida ayollar salmog'i ancha yuqori – **51 foiz. 18 yoshdan** keyin mazkur ko'rsatkich yanada ortib, **74 foizga** yetmoqda. Buning sababini qizlar oila yumushlari hamda daromad topish uchun boshqa joyga ko'chib o'tish imkoniyatining cheklangani bilan izohladi.

Qishloq yoshlari shaharliklarga qaraganda olim ta'lim muassasalariga kamroq kiradi, shu bois, ularda tadbirkorlikka qiziqish yuqori. Ishlayotgan respondentlarning **35,7 foizi** xususiy sektorda band. Davlat idoralarida faoliyat ko'rsatayotganlar ham taxminan shuncha.

O'zbekistonda startap loyihalarga, asosan, qishloq yoshlari qo'l urmoqda. **17,5 foiz** respondent shuning orqasidan shaxsiy biznesini yo'lga qo'yganini qayd etgan.

Ayollar, asosan, sog'liqni saqlash, ta'lim va qayta ishlash sanoatida band. Erkaklar orasida nisabatan omallashgan kasblar quruvchilik va fermerlik hisoblanadi.

E'tiborlisi shundaki, yoshlar ishlashni xohlagan va real ishlayotgan sohalar o'rtasidagi tafovut juda katta. Respondentlarning **28,7 foizi ta'lim, 26,3 foizi ilm-fan, 22,9 foizi tibbiyot, 21,7 foizi biznes va menedjmentga** qiziqishini aytgan. Amalda esa qurilish obyektlari (**14,4%**), qayta ishlash sanoati (**10,6%**), dehqon va fermer xo'jaliklarida (**9,8%**) mehnat qilmoqda.

Yana bir muhim jihat. 2016-yilda O'zbekistonda rahbariyat almashishi bilan iqtisodiyot vektori ham o'zgardi. Ya'ni uzoq muddat amal qilib kelgan bitta iqtisodiy model ikkinchisi bilan almashdi. Bunday holat Koreya Respublikasi, Yaponiya, Xitoy davlatlarida o'tgan asrning 70-80-yillarida kuzatilgan. O'shanda mamlakat yoshlari o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun qulay imkoniyat yaratilganini his etib, vatanini tark etmagan. O'zbekistondagi vaziyat ham shunga o'xshash. So'rovnomada qatnashgan yigit-qizlarning **77,3 foizi** xorijga ketish istagi yo'qligini aytgan. Bu unikal hodisa. Turli ijtimoiy-iqtisodiy muammolar bilan duch kelayotganiga qaramay, O'zbekiston yoshlarining aksariyati yurtga sadoqatini saqlab qolmoqda. Respondentlarning **63,4 foizi** ish, birinchi navbatda, qiziqarli bo'lishi kerak, deb hisoblaydi. Qiziqarli deganda ular o'zlari topgan ishni nazarda tutgan. Taassufki, **17,8 foiz** yoshlar ota-onasining qarshiligi sababli oliy ma'lumotli bo'lish orzusidan voz kechmoqda. Shundan **20,8 foizi** qizlar. Inchinun, hisob-kitoblarga qaraganda, O'zbekistonda oliy ma'lumotli mutaxassis maktab yoki kollej bitiruvchisiga qaraganda o'rtacha **55%** yuqori maosh oladi. **19,8 foiz** respondent (**26,3%**– erkaklar, **17,3%**– ayollar) uchun kasb tanlashda maosh hal qiluvchi o'rin tutadi. Qishloqdagi xotin-qizlar **1 million so'm**

(taxminan 100 dollar) oylikka ham qanoat qilishga rozi. **3-5 million** so‘m, yoshlar uchun yaxshi oylik hisoblanadi.

Ish topishdagi muammolar. Yoshlarning ishga joylashishiga uchta asosiy omil to‘sqinlik qilmoqda: o‘zi xohlagan mutaxassislikni egallash uchun mablag‘ning yo‘qligi; oliygohga kirish uchun pul yoki tanish-bilishning yo‘qligi; ota-onaning qistovi. Oxirgisi ayollar hayotida ikki baravar ko‘p kuzatilmoqda.

Uyda o‘tirgan yoshlarning yarmidan ko‘pi xotin-qizlar bo‘lib, erkaklar salmog‘i bor-yo‘g‘i **14 foizni** tashkil qiladi. **52 foiz** holatda respondentlar oila a‘zolarini parvarishlashga majburligi tufayli o‘qish va ishlashdan voz kechmoqda. Boshqa sabablar sifatida kontrakt to‘lashga sharoitning yo‘qligi (**17,9%**) hamda o‘qishga kira olmaslik (**17,1%**) ko‘rsatilgan.

Oila qurgan ayollarning **88,1 foizi** ishlamaydi. Ko‘p hollarda bunga ularning turmush o‘rtog‘i va qaynonasi to‘sqinlik qilmoqda.

Ma’naviy mezonlar. Tadqiqot natijalari ko‘rsatganidek, yoshlar, avvalo, ota-onasiga ishonadi. Ularning fikricha, yaxshi insonlar ota-ona farzandlari bilan doimiy muloqot olib boradigan, kasbiy yuksalishiga yordam beradigan, o‘rinli tanqidiy mulohazalar bildirib, dunyoqarashini kengayotiradigan oilalardan yetishib chiqadi. Ba’zi respondentlar yaxshi insonni tarbiyalashda o‘qituvchining ham roli muhimligini qayd etgan.

Er-xotin o‘rtasidagi janjallar, otasizlik (erkaklarning uzoq vaqt xorijda migratsiyada qolib ketayotgani), kattalarning tirikchilik ilinjida farzandiga yetarlicha e‘tibor qaratmayotgani oiladagi ma’naviy muhitni buzuvchi asosiy omillar sifatida tilga olingan.

O‘zbekiston yoshlari deyarli barcha masalalarda ota-onasiga tayanadi. Kattalarga hurmat ko‘rsatishi, ularning gapini ikki qilmasligi kerakligini ham yaxshi tushunadi. Chunki jamiyat hayoti, ayniqsa, mahalla-ko‘yda shunday tartib o‘rnatilgan.

Yoshlar oila qurish yoki pul topishni mustaqillik belgisi, deb tushunadi. Harqalay, bu ta’kid ayollardan ko‘ra ko‘proq erkaklarga xos. Chunki turmushga chiqayotgan qizlar moliyaviy masalalarda eriga tayanadi. An’anaviy o‘zbek oilalarida erkak “oila boquvchisi” maqomini olgan.

Tadqiqot O‘zbekistonda juda kam sonli yoshlar mamlakat doirasida hamda xorijga migratsiya qilish istagida ekanini ko‘rsatdi. Ularning **77 foizdan** ziyodi chetga chiqishni umuman xohlamaydi. Bir tomondan, bu vatanparvarlik namunasi. Boshqa tomondan esa, ayrim yoshlar muhojirlik azobini boshidan o‘tkazib, endi issiq joyini tashlab ketishni xohlamaydi. Yana bir qismi yangi joyda yangi hayot boshlashdan qo‘rqadi.

Tadqiqot natijalari ko‘rsatganidek, yoshlar, avvalo, ota-onasiga ishonadi. Ularning fikricha, yaxshi insonlar ota-ona farzandlari bilan doimiy muloqot olib boradigan, kasbiy yuksalishiga yordam beradigan, o‘rinli tanqidiy mulohazalar bildirib, dunyoqarashini kengayotiradigan oilalardan yetishib chiqadi.

Yakuniy qism. Respondentlar yashash uchun qulay muhit shaharda ham, qishloqda ham topilishini inkor etmadi. Asosiysi bu joy tincho soyishda va sogʻlom hayot kechirish imkonini berishi kerak. Ahamiyatli jihati shundaki, bugungi yoshlar siyosiy yangiliklarga koʻproq qiziqmoqda hamda oʻz fikrini erkin ifodalashi mumkinligini biladi. Shunga qaramay, ularning jamoat tashkilotlari hamda siyosiy partiyalardagi faolligi havas qilarli darajada emas. Respondentlar mahalliy qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etish imkoniyatidan mahrum ekanini taʼkidlagan – barcha masalalar faqat kattalar bilan bamaslahat hal qilinadi. Yoshlar bundan norozi, shu bois katta avlod vakillari bilan munosabatlarini qayta koʻrib chiqish kerak, deb hisoblaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Чиркин Г.Ф. Очерк колонизации Сибири во второй половине XIX и начале XX века в сборнике. Очерк истории колонизации Севера и Сибири. Пб. 1922. Выпуск № 2.
2. Переведенцев В.И. Проблемы адаптивности новых поселений и методы ее изучения // Изв. ТАК АН СССР. 1965. № 5, Вып. № 2.
3. Матлин И.С. Моделирование распределения населения. – Москва, 1975.
4. Топилин А.В. Территориальное перераспределение трудовых ресурсов в СССР. – Москва, 1975.
5. Оникиенко В.В., Поповкин В.А. Комплексное изучение миграционных процессов. – Москва, 1973.
6. Хомра А.У. Миграция населения: вопросы теории и методологии исследования. – Киев, 1979.
7. Мороквасич М. Перелетные птицы тоже женщины /М. Мороквасич // Обзор международной миграции, 1984.
8. Рыбаковский Л.Л. Миграционный обмен населением между Средней Азией и Россией. // Социологические исследования. – 1995. – № 9.
9. Рыбаковский Л.Л. Миграция — это явление. Три этапа процесса миграции. – Москва: Наука, 2001. – 114 с.
10. Зайончковская Я.А. Миграционная ситуация в стране. – Москва, 1999. – 246 с.
11. Миграция — это явление. Вып. 1. Теория и практика исследования. Приложение к журналу «Миграция в России». – Москва, 2001.
12. Хоткина З. Тендерная дискриминация в неформальной экономике / Тендерное равенство: поиски и решения старых проблем. – Москва, 2003.
13. Бритвина И.Б. Тендерная детерминация адаптации вынужденных переселенцев: социологический анализ / И.Б. Бритвина: авторуф. дис. ...докт. социол. наук. – Екатеринбург, 2006. – 38 с.
14. Davlatova Hulkaroy Uktamovna. (2021). Psycholinguistic research of children's speech by scientists. Researchjet Journal of Analysis and Inventions. DOI: <https://doi.org/10.17605/osf.io/ud96m> Volume 2, Issue 5 May,
15. Davlatova, H. (2022). Bolalarning aqli va nutqi rivojlanishida oilaning ta'siri. Scientific journal of the Fergana State University, (1), 51-51.

16. Davlatova Khulkaroy. (2023). *The role of psycholinguistics in the study of a foreign languages. international engineering journal for research & development. VOL. 8 NO. 4: VOLUME 8*
17. Rahmanova, G. ., Davlatova, K. ., Shahabitdinova, S. ., Odiljonova, A. ., Khayitova, S. ., & Akhunov, M. . (2025). *Migration and the elderly: Analyzing the social challenges of families left behind. Edelweiss Applied Science and Technology, 9(1), 713–718. <https://doi.org/10.55214/25768484.v9i1.4235>*
18. Rahmanova G., Davlatova K., Egamberdiyeva N., Khusanova K., Abduvaliyev M., & Maksudova H. (2025). *Patriotism and national identity in Uzbek female students abroad. Edelweiss Applied Science and Technology, 9(1), 737–748. <https://doi.org/10.55214/25768484.v9i1.4238>*
19. X.U Давлатова. (2019) *The variation of teaching kids to greeting in Uzbekistan and Great Britain. Молодой ученый, (1), 212-213*
20. Uktamovna, H. D. (2019). *Opportunities for english-speaking voices in the speech of children of the first school age. Problems and solutions of advanced scientific research, 1(1), 226-229*



Matkarimov Akramjon Muxtorovich,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: akramjon14@list.ru

OILADA TA'LIM MUHITINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. Maqolada milliy ta'lim tizimini rivojlantirishda oila va undagi ta'lim muhitining rivojlanganligi ijtimoiy-pedagogik zarurat ekanligi bayon qilingan. Xalqaro baholash tadqiqotlarida ham oila, oiladagi ta'lim muhiti kabi ijtimoiy-pedagogik jihatlarga keng e'tibor qaratilgan. O'quvchining ta'limda muvaffaqiyatga erishishida oiladagi ta'lim muhitining shakllangani hamda ota-onalarning ta'limga bo'lgan ijobiy munosabati hal qiluvchi ahamiyatga ega ekani ta'kidlangan. Maqolada, shuningdek, oilada ta'lim muhitini rivojlantirish bilan bog'liq muammolar tahlil qilingan.

Аннотация. В статье утверждается, что развитие образовательной среды в семье является социально-педагогической необходимостью развития отечественной системы образования. В международных исследованиях по оценке знаний также уделяется особое внимание социальным и педагогическим аспектам, таким как семья и образовательная среда в семье. Подчеркивается, что формирование образовательной среды в семье и позитивное отношение родителей к образованию имеют решающее значение для успешности обучения школьника. В статье также анализируются вопросы, связанные с развитием образовательной среды в семье.

Annotation. The article argues that the development of the educational environment in the family is a socio-pedagogical necessity for the development of the national education system. International assessment studies also pay special attention to socio-pedagogical aspects, such as the family and the educational environment in the family. The formation of an educational environment in the family and a positive attitude of parents towards education are crucial for a student's academic achievements. The article also analyzes issues related to the development of the educational environment in the family.

Tayanch so'zlar: oila, oiladagi ta'lim muhiti, xalqaro baholash tadqiqotlari, o'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyati.

Ключевые слова. семья, образовательная среда в семье, международные оценочные исследования, достижения учащихся в образовании.

Keywords: family, educational environment in the family, international assessment studies, student's academic achievements.

Kirish. Respublikamizda milliy ta'lim mazmunini takomillashtirish, maktab ta'limini isloh qilish, o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash, ularda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirish kabi ijtimoiy-pedagogik vazifalarning dolzarbligi ortib bormoqda. Buning uchun pedagogik nuqtayi nazardan o'quv dasturlari, darsliklar, o'qitish metodikasi va ta'lim natijalarini baholash tizimini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish bo'yicha islohotlar olib borish zarurat bo'lib borayotgan bo'lsa, ijtimoiy jihatdan o'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyatini ta'minlashda oila instituti ahamiyatini oshirish, maktab va oila hamkorligini mustahkamlash, ta'lim olishdagi ijtimoiy tenglik kabi masalalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Maqsad va uni asoslash. Xalqaro baholash tadqiqotlarida o'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyati yuqori ko'rsatkichga ega emasligi milliy ta'lim tizimi va oila hamkorligiga doir muammolarning yetarli darajada hal qilinmaganligi bilan izohlanadi. Shunday ekan, mazkur masala milliy ta'lim tizimining siyosiy maqsadi sifatida ko'rilmog'i darkor. Shuningdek, oilalarda ta'lim muhitining rivojlanishi oila joylashgan hududga ham ko'p jihatdan bog'liq. Oiladagi ta'lim va tarbiya jarayoniga ko'maklashish hududdagi oilalar bilan ishlash muassasalari, kattalar ta'limi markazlari, yoshlar markazlari, bolalar bog'chalari, maktablar va diniy tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. Bolalar va o'smirlar bo'sh vaqtini samarali tashkil etish va bu orqali ularning ta'limdagi muvaffaqiyatini ta'minlash davlat siyosati darajasida hal qilinishi lozim bo'lgan vazifalar qatoriga kiradi. Jumladan, maktablarda asosiy dars mashg'ulotlaridan so'ng uy vazifalarini tayyorlash va ma'lum bir dastur asosida qo'shimcha mashg'ulotlar tashkil etish, shu maqsadda professional kadrlarni tayyorlash, hududdagi barcha oilalar vaziyatidan kelib chiqqan holda qo'llab-quvvatlash takliflari shakllanishi lozim.

Ilmiy muammoning tavsifi. Oilada ta'lim muhitiga doir ilmiy tadqiqotlar muntazam ravishda o'tkazilib kelinmoqda va bu kabi tadqiqotlarning ta'lim tizimini konseptual jihatdan rivojlantirishdagi ahamiyati ortib bormoqda. Oiladagi ta'lim muhiti bilan bog'liq muammolarning asosiysi – ota-onalarning pedagogik kompetensiyalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, jamiyatda farzand tarbiyasi va ta'limi bo'yicha professional ta'lim dasturlarining mavjud emasligi, kamligi yoki mazmuning sifat darajasi pastligi. Buning natijasida ota-onalar Internet tarmog'i yoki o'z tanishlari orqali tajriba almashish orqali istagan ma'lumotlarini topishga harakat qiladi. Yana bir jihati aynan oiladagi ta'lim muhitini rivojlantirishga doir ma'lumotlar oiladagi tarbiyaviy muhitni rivojlantirishga qaratilgan ma'lumotlarga nisbatan kamroq uchraydi. Ota-onalarning pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish institutsional va professional yondoshuvni taqozo etadi.

Oilada ta'lim muhitiga doir ilmiy tadqiqotlar muntazam ravishda o'tkazilib kelinmoqda va bu kabi tadqiqotlarning ta'lim tizimini konseptual jihatdan rivojlantirishdagi ahamiyati ortib bormoqda.

Oilaning ijtimoiy ahamiyati shundaki, u aholining jismoniy va ruhiy tarbiyasi va mehnat resurslarining yuzaga kelishi hamda bir maromda davom etishida. Oila davlat oldida ham ma'lum bir vazifalarni amalga oshiradi. Bular – reproduktivlik va tarbiyaviy funksiyalar. Bundan tashqari, oilaning muhim funksiyalari qatoriga iqtisodiy kommunikativ, qulaylik va dam olishni tashkil qilish hisoblanadi.

Ta'lim nuqtayi nazaridan esa oila dastlabki va bir umrlik "ta'lim muassasasi" vazifasini o'tab, farzandlarda ta'limga oid qadriyatlarni shakllantiradi. Oilada ta'lim, intellekt, ta'lim manbalarining ustuvorlikka egaligi, ota-onalarning ta'limga nisbatan munosabatlari farzandlar uchun namuna va hayotiy strategik yo'nalish sifatida shakllanib boradi. Bir qator olimlar oilaning iqtisodiy funksiyasi mavjudligini ham nazarda tutib o'tishgan, ular bu orqali avloddan-avlodga professional bilimlar, tajriba va ko'nikmalarning qolishini nazarda tutiladi. Zero, bu ham oilaning akademik resursi hisoblanadi.

Oilaning ijtimoiy ahamiyati shundaki, u aholining jismoniy va ruhiy tarbiyasi va mehnat resurslarining yuzaga kelishi hamda bir maromda davom etishida. Oila davlat oldida ham ma'lum bir vazifalarni amalga oshiradi. Bular – reproduktivlik va tarbiyaviy funksiyalar. Bundan tashqari, oilaning muhim funksiyalari qatoriga iqtisodiy kommunikativ, qulaylik va dam olishni tashkil qilish hisoblanadi. Oilaning jamiyatdagi ijtimoiy mexanizmini yuzaga keltirishdagi o'rni beqiyosdir. Bu har doim rivojlanib boruvchi yaxlit organizm bo'lib, o'z rivojlanishi jarayonida bir necha bosqichlarni bosib o'tgan. Unda, ya'ni oilada farzandlar dunyoga keladi, dastlabki adaptatsiyani o'taydi, tarbiyalanadi, ta'lim oladi, muhimi farzandlarning o'zlariga o'z oilalarini shakllantirishiga imkon paydo bo'ladi, qariya ota-onalarning qarilik davrini boshidan kechirish bosqichi ham mavjud bo'ladi. Oilaning muvaffaqiyati uning mustahkamligidir, jamiyatning ijtimoiy rivoji esa aholi miqdori va uning sifatiga bog'liq.

Olima Q. Abdurasulova hozirgi davrdagi oilaviy munosabatlar sohasidagi o'zgarishlarni quyidagicha keltirib o'tadi, jumladan:

- oila a'zolarining soni kamayib bormoqda (tug'ilishning kamayishi hisobiga);
 - oilaning ijtimoiy va madaniy qadriyatlari susayib bormoqda;
 - oilaning jamiyatdan ajralishi va o'z qobig'iga o'ralib qolishga intilishi sodir bo'lmoqda;
 - nikohdan ajralishlar soni oshib, noqonuniy tug'ilgan farzandlar soni ko'paymoqda;
 - muvaffaqiyatsiz tuzilgan oilalar ko'paymoqda;
 - ota-onalarning pedagogik tajribasi va mahorati kamayib bormoqda¹.
- Oiladagi ta'lim muhitini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat institutsionallashgan holda quyidagi ta'lim xizmatlarini taklif etadi:
- ota-onalar uchun kurslar, ma'ruzalar, oilalar uchrashuvi;
 - ota-onalar tashabbuslari asosida shakllantirilgan ta'limga doir ahamiyatga ega tadbirlar (sayohatlar, uchrashuvlar, loyihalar va boshqalar);

¹ Abdurasulova Q. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi va uning oldini olish muammolari // Qonun himoyasida. 2001-yil 1-son. – B. 23-26.

turli tashkilot va muassasalar hamkorligidagi tadbirlar (tibbiyot muassasalari, mahalla va oilalar hamkorligi);

o‘z-o‘ziga yordam ko‘rsatishga qaratilgan maslahat markazlari va qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan tashkilotlar;

ommaviy axborot vositalari, gazetalar, jurnallar va flayerlar orqali oilalarni qo‘llab-quvvatlovchi media tashkilotlar².

Oiladagi tarbiya qadriyat darajasida yuksalishi lozim, chunki bu oilaning ta‘lim funksiyasini rivojlantiradi. Quyida pedagog olim M.R.Textor tomonidan taklif etilgan oilaning ta‘lim funksiyasini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat turlari keltirib o‘tilgan. Ular:

ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi muloqotning mazmuni va sifatining oshirilishi (jumladan, muloqotda qo‘llaniladigan so‘zlar va atamalarni to‘g‘ri qo‘llash, ularni tushuntira olish, ilmiy, hayotiy-amaliy faoliyatdagi ahamiyatini anglashga ko‘maklashish);

farzandlarining dunyo va atrof-olamni o‘rganishi va anglab yetishda, jamiyatda ijtimoiy munosabatlar o‘rnatishda qo‘llab-quvvatlash;

oilada ta‘lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega o‘yinlar o‘ynash, kitobxonlikka o‘rgatish, farzandining ilk yoshidan boshlab ovoz chiqarib kitob o‘qib berish, uy sharoitida kichik tajribalar o‘tkazish, birgalikda filmlar tomosha qilish, kitoblar, telefilmlar, fan yoki g‘oyalar haqida suhbatlashish;

farzandlarining erishgan yutuqlarini rag‘batlantirish orqali ularni maktabgacha ta‘lim muassasalariga tayyorlash, maktabdagi o‘qishiga ijobiy munosabatini shakllantirish;

maktab va sinfda sodir bo‘layotgan voqealar haqida muntazam muloqot o‘tkazish, uy vazifalarini tayyorlashda yordamlashish, kelgusi rejalar haqida muntazam suhbatlashish va rejalarini amalga oshirish uchun uni qo‘llab-quvvatlash;

boshqa ota-onalar va o‘qituvchilar bilan doimiy aloqada bo‘lish, farzandining ta‘limiga doir qo‘shimcha ehtiyojlarini qondirish uchun maktabdan tashqari muassasalar bilan doimiy aloqada bo‘lish va qo‘llab-quvvatlash³.

Jamiyatda oilalardagi tuzilmalar o‘zgarib bormoqda. Insonlarning iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy ehtiyojlari ham o‘zgarib bormoqda. Bu esa har bir insonning individual turmush kechirishiga sabab bo‘lmoqda.

Oiladagi tarbiya qadriyat darajasida yuksalishi lozim, chunki bu oilaning ta‘lim funksiyasini rivojlantiradi. Quyida pedagog olim M.R.Textor tomonidan taklif etilgan oilaning ta‘lim funksiyasini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat turlari keltirib o‘tilgan.

² Textor M.R. Allgemeine Förderung der Erziehung in der Familie. § 16 SGB VIII. Stuttgart 1996. p. 212.

³ Textor M.R. Die Bildungsfunktion der Familie stärken: Neue Aufgabe der Familienbildung, Kindergärten und Schulen? Nachrichtendienst des Deutschen Vereins für öffentliche und private Fürsorge, 85 (5), 2005. pp. 155-159.

Oila va uning ma'naviy-iqtisodiy farovonligi bir vaqtning o'zida shaxsning axloqiy-ruhiy barkomolligiga va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga olib keladi. Shu bois oila va undagi hayotning turli jihatlarini tadqiq qilish ham ilmiy, ham amaliy nuqtayi nazardan katta ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda avlodlar almashinuvi jarayoni tezlashib, ularning fikrlash darajasi ham o'zgarib bormoqda. Hozirgi maktab yoshidagi bolalar, asosan, Z va α gen avlodlariga to'g'ri keladi. Boshqa tarafdin maktablarning o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishdagi funksional vazifalari salmog'i va ijtimoiy ma'suliyati yildan-yilga oshib bormoqda. Shuningdek, ta'lim tizimidagi xalqaro baholash tadqiqotlarining joriy etilishi jamiyatning yildan-yilga ta'lim va uning sifatiga qo'yiladigan talablari oshib borayotganini ko'rsatmoqda.

Tadqiqotlar oila va maktab hamkorligini mustahkamlash borasida ko'plab muammolar mavjud ekanini ko'rsatadi⁴. Muammoning eng asosiysi sifatida ota-onalar yoki o'qituvchilarning hamkorlikka bo'lgan qiziqishining yo'qligi bilan tavsiflanadi. "Otterpohl und Wild" o'z tadqiqotlarida qat'iy xulosa sifatida muvaffaqiyatli hamkorlik uchun aslida barcha ishtirokchilarning yagona "hamkorlik" tushunchasiga ega bo'lishi tushuniladi. Bunda ota-onalar, shuningdek, maktab ma'muriyati, o'qituvchilarning hamkorlik borasidagi tasavvurlari bir-biridan tubdan farq qiladi. Asosiy faoliyat sifatida darsdan tashqari tadbirlarda ishtirok etish, zarurat bo'lganda tashkillashtiriladigan kam sonli suhbatlar oddiy sheriklik munosabatlari sifatida baholanishi mumkin. Bunda kommunikativ muvafiq lashtirish jarayoni zarur bo'lib, ota-ona va maktab hamkorligi aslida qanday bo'lishi va amalga oshirilishi lozimligi muzokaralar orqali aniqlashtirib olinishi lozim, albatta⁵.

Oila va uning ma'naviy-iqtisodiy farovonligi bir vaqtning o'zida shaxsning axloqiy-ruhiy barkomolligiga va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga olib keladi. Shu bois oila va undagi hayotning turli jihatlarini tadqiq qilish ham ilmiy, ham amaliy nuqtayi nazardan katta ahamiyatga ega⁶.

Rossiyalik olim G.F.Shershenevich "Oila – nikoh orqali birlashgan va ittifoq tuzgan shaxslar va ulardan tug'ilgan shaxslar, ya'ni er-xotin va farzandlarning birgalikdagi yashashidir"⁷ deya ta'kidlagan. Olimning fikricha, oila nafaqat aholining ko'payishi va rivojlanishi

⁴ Jäger-Flor, D. & Jäger, R. S. Bildungsbarometer zur Kooperation Elternhaus-Schule. Ergebnisse, Bewertungen und Perspektiven. Landau: VEP Verlag Empirische Pädagogik, 2010. -p. 266

⁵ Otterpohl, N. & Wild, E. Kooperation zwischen Elternhaus und Schule im Kontext der schulischen Leistungsentwicklung. In B. Kracke & P. Noack (Hrsg.), Handbuch Entwicklungs- und Erziehungspsychologie. Springer Reference Psychologie Berlin, 2019. -p. 293-306.

⁶ Abdullaeva D.U. Oila haqidagi ijtimoiy tasavvurlar oila mustahkamligini ta'minlovchi fenomen// Pedagogika jurnali, 1-son, 2022. - B. 50-53

⁷ Шершеневич Г.Ф. Учебник русского гражданского право. Т. 2, м., -М., 2015. - С.259.

uchun javobgar bo'lgan, balki shaxsni tarbiyalovchi, muayyaan yashash muhitini yaratib beruvchi va insonni shaxs sifatida shakllantiruvchi eng muhim muhit hisoblangan, hisoblanmoqda va bundan keyin ham shunday hisoblanadi [10; 260]. Olim "shaxs sifatida shakllantiruvchi eng muhim muhit" sifatida ta'lim muhitini ham nazarda tutadi. Aslida, oilada farzandlarning ta'limga bo'lgan munosabatini shakllantirish masalasiga tarbiyaning bir turi sifatida qarash mumkin bo'ladi. Farzandlarda ta'limga nisbatan qadriyatli munosabatning rivojlanishi ularning shaxs sifatida ham, jamiyatdagi faol fuqoro sifatida ham, bo'lajak mutaxassis sifatida ham ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy-siyosiy, shuningdek, kasbiy munosabatlarning sifat ko'rsatkichini ta'minlab, ularda mas'uliyatlilik, javobgarlilik, o'z manfaatidan xalq manfaatini yuqori qo'yish kabi xususiyat va qadriyatlarni tarkib toptiradi.

Oilaviy munosabatlar farzandlarning aqliy va ruhiy kamolotini ta'minlab, ota-onalarda o'ziga xos faollikni ham yuzaga keltiradi. Xususan, farzandlarning bevosita ta'siri tufayli, ularning qiziqish va faoliyat doirasi kengayadi, o'zaro aloqalari mazmunan boyib boradi, real hayot mohiyatini chuqurroq anglash, ya'ni farzandlar kamoloti va kelajagi timsolida o'z umri davomiyligini qurish holati ro'y beradi. Bularni amalga oshirishda ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi o'zaro muloqot ham muhim ahamiyatga ega⁸. Oila sharoitida ota-onalarning o'zlari atrofdagilar bilan ijobiy muloqot qila olish ko'nikmalariga ega bo'lishi hamda farzandlarda ham juda yoshlikdan muloqot madaniyati sifatlarining shakllanib borishiga e'tibor qaratishlari zarur.

Yakuniy qism. Oilada farzandlar bilan muloqot deganda, kishilarning o'zaro muloqotga kirishish tizimi tushunilib, uning asosiy mazmuni o'zaro axborot almashish, shaxsni bilish, tarbiyaviy ta'sir o'tkazish sanaladi. Ota-onalar bu jarayonni tashkil etishi, faollashtiruvchisi sifatida maydonga chiqishi, boshqarishi lozim. Chunki farzandlar hayotda asosiy andozani ota-onalaridan oladilar. Muloqotchanlik ham oilada shakllanib, rivojlanadi. Oiladagi muloqotning tarbiyaviy ahamiyati, ota-onaning farzandlari bilan faol muloqotga kirisha olishi, tarbiya jarayonida ularni bilishi, o'rganish kaliti va tarbiyaviy faoliyatining ijodiy xarakteri, bola shaxsining shakllanishi uchun eng yaxshi sharoit yaratadigan, tarbiyada maqbul bo'lgan emotsional muhitni ta'minlovchi, jumladan, ruhiy psixologik to'siqlar paydo bo'lishining oldini oladigan, farzandlarda ijtimoiy-psixologik jarayonlarni to'g'ri yo'lga solib boshqarishni ta'minlaydigan muhim vositadir.

Oilaviy munosabatlar farzandlarning aqliy va ruhiy kamolotini ta'minlab, ota-onalarda o'ziga xos faollikni ham yuzaga keltiradi. Xususan, farzandlarning bevosita ta'siri tufayli, ularning qiziqish va faoliyat doirasi kengayadi, o'zaro aloqalari mazmunan boyib boradi, real hayot mohiyatini chuqurroq anglash, ya'ni farzandlar kamoloti va kelajagi timsolida o'z umri davomiyligini qurish holati ro'y beradi.

⁸ Alimova G. Oilada bolalar muloqotchanligini oshirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari / Kasb-hunar ta'limi. 1-son 2019-yil. – B. 11-14.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullaeva D.U. Oila haqidagi ijtimoiy tasavvurlar oila mustahkamligini ta'minlovchi fenomen // *Pedagogika jurnali*. 1-son 2022-yil.
2. Abdurasulova Q. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi va uning oldini olish muammolari // *Qonun himoyasida*. 1-son 2001-yil.
3. Alimova G. Oilada bolalar muloqotchanligini oshirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari / *Kasb-hunar ta'limi*, 1-son 2019-yil.
4. Jäger-Flor, D. & Jäger, R. S. *Bildungsbarometer zur Kooperation Elternhaus-Schule. Ergebnisse, Bewertungen und Perspektiven*. Landau: VEP Verlag Empirische Pädagogik, 2010.
5. Otterpohl, N. & Wild, E. *Kooperation zwischen Elternhaus und Schule im Kontext der schulischen Leistungsentwicklung*. In B. Kracke & P. Noack (Hrsg.), *Handbuch Entwicklungs- und Erziehungspsychologie*. Springer Reference Psychologie Berlin, 2019.
6. Textor M.R. *Allgemeine Förderung der Erziehung in der Familie*. § 16 SGB VIII. Stuttgart 1996.
7. Textor M.R. *Die Bildungsfunktion der Familie stärken: Neue Aufgabe der Familienbildung, Kindergärten und Schulen? Nachrichtendienst des Deutschen Vereins für öffentliche und private Fürsorge* 2005, 85 (5).
8. Шершенович Г.Ф. *Учебник русского гражданского права*. Т. 2, – Москва, 2015.

“OILA VA GENDER” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬЯ И ГЕНДЕР»
“FAMILY AND GENDER” RESEARCH INSTITUTE

**OILA, XOTIN-QIZLAR VA
IJTIMOIY HAYOT**
СЕМЬЯ, ЖЕНЩИНЫ И ОБЩЕСТВЕННАЯ ЖИЗНЬ
FAMILY, WOMEN AND SOCIAL LIFE

elektron ilmiy jurnal
электронный научный журнал
electronic scientific journal

1/2025

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan. “Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv” jurnalining vorisidir.

Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.

Журналу выдано «Свидетельство о государственной регистрации средств массовой информации» № 1190 Управлением печати и информации города Ташкент от 17 июня 2021 года. Журнал “Семья, женщины и общественная жизнь” считается продолжение журнала “Социальное управление”.

Настоящий журнал – издание, специализирующееся на применении междисциплинарных, фундаментальных научно-практических исследований и инновационных идей во всех социальных вопросах, касающихся укрепления институтов махалли, семьи и гендерного равенства.

The journal was issued «Certificate of state registration of mass media» No.1190 by the Press and Information Department of Tashkent city dated June 17, 2021.

The journal «Family, women and social life» is a continuation of the journal «Social management».

This journal is a publication specializing in the application of interdisciplinary, fundamental scientific and practical researches and innovative ideas in all social issues related to strengthening the institutions of makhalla, family and gender equality.

MUASSIS:

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Sobirova E.,
Jabborov U., E.Sultonov**

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizayner: **Yakubov O.**

Jurnaldagi materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e’tiborga olgan holda jurnalga havola berilishi shart.

Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 02.03.2024.

“Times New Roman” garniturasini. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 11,6.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoiliy ko‘chasi 1-G uy.

“Pages Print” МЧЖ босмахонасида чоп этилди.

Тошкент, Олмазор тумани, Чимбой кўчаси, 8-уй.